



Pulning kelib chiqish tarixi, rivojlanishi va zarurligi

Sa'dullayev Asilbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2 – kurs talabasi

+ 998 93 782 44 77

Annotatsiya: Ushbu maqolada pul o'zi nima ? Uning qanday paydo bo'lganligi, dastlabki pullar qanday ko'rinishda bo'lganligi va qanday vazifa bajarganligi, shuningdek pulning mohiyati va vazifalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: pul, oltin va kumush tangalar, pulning vazifalari, pulning nazariyalari, pulning mohiyati, tovar, metall pul, qog'oz pul va banknotlar.

Annotation: This article explores what money is, how it originated, the form of early money, and what role it played, as well as the essence and functions of money.

Keywords: money, gold and silver coins, functions of money, theories of money, essence of money, commodity, metallic money, paper money, and banknotes.

Аннотация: В данной статье исследовано, что такое деньги, как они возникли, какой была их первоначальная форма и какую роль они играли, а также сущность и функции денег.

Ключевые слова: деньги, золотые и серебряные монеты, функции денег, теории денег, сущность денег, товар, металлические деньги, бумажные деньги и банкноты.



Kirish

Pul insoniyat tarixida juda muhim o'rinni egallagan va iqtisodiy munosabatlarning asosidir. Dastlab odamlar tovar va xizmatlarni to'g'ridan – to'g'ri ayirboshlashgan, lekin bu jarayon noqulayligi sababli pulning kelib chiqishi zaruriyatga aylandi. Pul tiziminining rivojlanishi natijasida jamiyat iqtisodiyoti yanada tartibli va samarali bo'la boshladi. Pul nafaqat tovar va xizmatlar almashinuvi vositasi sifatida, balki jamg'arish va qiymatni saqlash vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda pul iqtisodiyotning ajralmas qismi va jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pul – bu shunday maxsus tovar, u barcha boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Pul umumiy tovarlarni ayirboshlashda muhim vazifani bajaradi.

Pul – iqtisodiy kategoriya bo'lib, barcha tovarlar uchun umumiekvivalent vazifasini bajaradigan tovardir. Pul faqat ayirboshlash jarayonida zarur bo'ladigan, hukumat tomonidan o'rnatiladigan to'lov vositasidir. Shuningdek, pul haqida bir qancha olimlar o'zlarini ta'riflarini keltirib o'tishgan. Masalan, A.Smit pulni iqtisodiy kategoriya darajasiga ko'tarib, pulga “pul – bu muomalaning buyuk g'ildiragi”, “savdo sotiqning yuksak quroli” sifatida ta'rif bergan.

D.Yum A.Smitning pul haqidagi qarashlariga e'tiroz bildirib, “Pul – bu savdo – sotiqning g'ildiragi emas, balki u yog', shu savdo – sotiq g'ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir” degan fikrni aytib o'tgan.

Bundan tashqari Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e'tibor berishgan. Misol uchun, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga “Pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to'lovlarni amalga oshirish ishlarini yengillashtiradi” deb ta'kidlagan.



O'zbekistonlik iqtisodchi olimi Sh.Z.Abdullayeva pul, kredit va banklar masalasiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda pulning mohiyatini ochishda uchta jihatga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi:

1. Pulning is'temol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o'z aksini topadi.
2. Pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini mavhum mehnat tashkil qiladi.
3. Pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisod fanlari doktori, professor O.Yu.Rashidov va boshqalar ishtirokida chop qilingan darslikda "Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi.

Pul – bu mutloq likvidlikka ega bo'lgan ne'matdir.

Pulning vujudga kelishi haqida iqtisodiy adabiyotlarda haligacha yagona yondashuv mavjud emas. Shunga qaramasdan pulni vujudga kelishida asosan qadimda odamlarning ixtiyorida bo'lgan yeguliklar, uzoq muddat saqlab bo'lmaydigan narsalar yoki ortiqcha narsalarni boshqalar bilan bo'lishish natijasida, shuningdek boshqa tovarga ayirboshlash natijasida vujudga kelgan degan farazlar mavjud. Insonlar ongi rivojlanib borgan sari ayirboshlagan tovarlar qiymati tenglasha borgan. Qadimda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan, masalan, chorva mollari, mol terilari, bolta, don mahsulotlari va boshqalar. Keyinchalik esa pul vazifasini qimmatbaho metallar bajargan, sababi ular o'z sifatini osonlikcha yo'qotmagan va pulni o'rnini bosa olgan.

Pul insoniyat tarixi 3-ming yilligining ajralmas bo'lagi sanaladi. U ixtiro qilinishidan avvalroq esa insonlar o'zaro ayirboshlash munosabatlaridan foydalanishgan, bunda tovarlar bilan tovarlar yoki xizmatlar bilan xizmatlar ayirboshlangan. Biroq bunda ma'lum qiyinchiliklar va vaqt yo'qotish holatlari ko'p bo'lgan. Masalan, kimdir bitta toshdan yasalgan bolta evaziga biror ovchidan mamontni otib berishini so'rasa, ovchi haqiqatdan ham, bitta bolta evaziga xizmat qilishi arzirli yoki yo'q ekanini aniqlashga vaqt ketgan.



Ayirboshlash – bu kishilarning istak – xohishlari va ehtiyojlari mahsuli sifatida amalga oshiriladigan jarayon bo’lib, buning natijasida, tomonlar ehtiyojini qondirish maqsadida ixtiyoridagi mehnat mahsulidan voz kechib, zarur bo’lgan boshqa mehnat mahsuli o’rniga berishdir.

“Jarohatlovchi” tangalar

Taxminan miloddan avvalgi 770 – yillarda xitoyliklar ma’lum turdagi buyum va qurollarni ayirboshlash maqsadida ularning bronzadan yasalgan kichik shakllaridan foydalanishgan. Ammo odamlar cho’ntaklaridan kichik xanjarlarni olish chog’ida qo’llarini shikastlab olishlari mumkin edi va buni hech kim xohlamagan. Shu sababli vaqt o’tib, bu kabi bronza buyumchalar dumaloq shakldagi qulay tangalarga aylana borgan.

Dastlabki tangalar birinchi bo’lib Xitoyda muomalaga kiritilgan bo’lishiga qaramasdan, ilk tangalar tarixiy Lidiyada (hozirgi g’arbiy Turkiya) zarb etila boshlangan. Birinchi tangalar tarixiy Lidiyadan uncha uzoq bo’lmagan hududlardan topilgan. Miloddan avvalgi 600 – yillarda Lidiya qiroli Alyattes birinchi rasmiy tangani zarb ettirdi. Bu tangalar oltin va kumush aralashmasidan yasalgan va muhr bosilgan ko’rinishda bo’lgan. Birinchi oltin pullar bizning eramizgacha bo’gan VII asrda Lidiya shohi Gigesning buyrug’i bilan zarb etilgan. Oltin o’zining tasvirini birinchi bo’lib Aleksandr Makedonskiy o’zining aksini tushurib zarb ettirgan.

Dastlabki qog’oz pullar X asrning oxiri XI asrning boshlarida Xitoyda chiqarilgan. Bunga muhim sabab bo’lib esa Xitoyda qog’ozning kash etilishi va bosma mashinalarining yaratilganligi keltirilgan. Dastlab muomalaga chiqarilgan qog’oz pullar “erkin tanga”, keyinchalik “qimmatbaho qog’oz tangalar” deb yuritildi, ular mamlakatda erkin aylanadigan to’lov vositalari bo’lishiga qaramasdan oltin yoki tovarlar bilan ta’minlanmagan edi. O’zbekistonda qog’oz pullar 1918 – yildan boshlab dastlab Buxoro **Sinaps.uz sayti.**



amirligida muomalaga chiqarilgan. Muomalaga chiqarilgan nominali 20, 60, 100, 200, 300, 500, 1000, 2000, 3000, 5000 va 10000 qog'oz pullar tanga deb atalgan.

Pul (fors – tojikcha) – O'rta Osiyo xonliklari va Yaqin Sharqdagi ayrim davlatlarda qo'llangan mis chaqa pul. Masalan, 1 pul XVIII – XIX asrlarda Qo'qon xonligida $1/45$ – $1/60$ tangaga, Buxoroda 1 pul $1/40$ tillaga, 1932 -yilgacha Eronda $1/40$ qironga teng bo'lgan. O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalar miloddan avvalgi VI asrda Ahamoniy shoh Doro I tomonidan zarb etilgan. Bu metall tangalarning og'irligi 8,4 grammni tashkil qilgan va "darik" deb nomlangan tilla tangalar hisoblanadi.

Yevropada esa 16 – asrga qadar hanuz tanga pullardan foydalanish ommabop bo'lgan. Chunki yevropaliklar o'sha davrda turli hududlardagi koloniyalaridan qimmatbaho metallarni ko'p miqdorda tashib keltirishgan. Keyinchalik esa Yevropada banklarda pul saqlovchi va qarz oluvchilar uchun banknotalar ishlab chiqarila boshlangan. O'z o'rnida ular ma'lum qiymatga teng bo'lgan va o'z qimmatiga mos oltin va kumush tangalarga ayirboshlangan. XX asrda monetar hayotda keskin burilishlar sodir bo'ldi. Umumiy valyuta bozori shakllandi, oltin valyuta standarti qabul qilindi. 21 – asrda esa pul bilan bog'liq ikkita o'ziga xos tendensiya ommalashdi : elektron to'lovlar va kriptovalyuta. 2008 – yilda ishlab chiqilgan bitkoin esa eng mashhur kriptovalyuta hisoblanadi. Bugungi kunda dunyodagi jami pullarning 0,4 %i bitkoindan tashkil topgan. 1 bitkoin 9400 dollar yoki 96 mln so'mga yaqin qiymat kasb etadi.

Pul asosan 5 ta funksiyani bajarishi keltirib o'tilgan: 1. Qiymat o'lchovi ; 2. Muomala vositasi ; 3. To'lov vositasi ; 4. Jamg'arma vositasi; 5. Jahon puli.

Keyinchalik pulning funksiyalari xususidagi fikrlarga tayanib, pul 4 ta vazifani bajarishi : qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi.

1. Qiymat o'lchovi – bu asosan tovar qiymatini baho shaklida aks ettirish orqali namoyon bo'ladi.



2. Muomala vositasi – bu bozor ishtirokchilari oʻrtasida tovarlarni oldi – sotdisi va xizmatlarni koʻrsatish orqali namoyon boʻladi.
3. Toʻlov vositasi – bu tovarlar sotilganda va xizmatlar koʻrsatilganda, ular uchun toʻlov kechiktirib amalga oshirilgan hamma holatlarda namoyon boʻladi.
4. Jamgʻarma vositasi – bu pul oʻzining muomala va toʻlov vositasi funksiyalarini bajarmagan vaqtda namoyon boʻladi.

Pulning turlari

Natural pullar. Jamiyatning ilk davrlarida toʻlov vositasi sifatida foydalanilgan pullar buyum yoki natural koʻrinishga ega boʻlgan.

Metall pullar. Metalldan yasalgan mehnat qurollarining toʻlov vositasi sifatida foydalanganligi natijasida, keyinchalik dumaloq va ixcham metall tangalar zarb etilgan.

Qogʻoz pullar. Qogʻoz pullarning muomalga kiritilishi jamiyatda ijtimoiy – iqtisodiy voqelik boʻlgan va bir necha muammolarni keltirib chiqargan.

Kredit pullar. Kredit pullar tovar ishlab chiqarish jarayonida paydo boʻlgan va tovarning oldi – sotdisi uchun toʻlovni kechiktirish tarzida amal qiladi.

Kripto pullar. Kripto – soʻzi sirli, yashirin, shifrlangan murojaatnoma kabi maʼnolarni anglatadi. Kriptovalyuta esa raqamli valyutalarning bir koʻrinishi hisoblanadi.

Xulosa

Pulning kelib chiqishi va rivojlanishi insoniyat tarixidagi muhim hodisalardan biri va u iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini oshirishga ulkan hissa qoʻsha oldi. Barter tizimidan zamonaviy elektron toʻlov tizimiga qadar, pulning shakllari va funksiyalari jamiyatning ehtiyojiga qarab oʻzgara bordi. Pul nafaqat savdo vositasi sifatida, balki iqtisodiy barqarorlik va global iqtisodiy munosabatlarni birlashtirishda va mustahkamlashda ham muhim oʻrinni egalladi. Bugungi kunda pulning ahamiyati yanada ortib, u zamonaviy



hayotning ajralmas bir bo'lagiga aylandi. Shuning uchun pulning kelgusi rivojlanishi va yangi shakllarining yaratilishi global iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonov A.A. Qoraliyev T.M “Pul va banklar” darslik
2. Uz.wikipedia.org sayti.
3. Kun.uz – rasmiy axborot va informatsiyalar sayti